

**DARS JARAYONIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH TALIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY  
OMILI SIFATIDA.**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КЛАССЕ КАК  
КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ  
ОБУЧЕНИЯ.**

**THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE CLASSROOM AS A KEY  
FACTOR IN INCREASING LEARNING EFFICIENCY.**

**Shaymanova Zamira**

Toshkent Shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik  
malaka instituti 1-kurs magistranti  
(+998909635572, [zamirashaymanova92@gmail.com](mailto:zamirashaymanova92@gmail.com))

**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni o'rganish, turli xil o'quv materiallari turlaridan foydalanish, raqamli texnologiyalar yordamida o'qituvchi har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini kuzatib borishi, tahlil qilishi va baxolashi mumkin. Bu ta'lim samaradorligini yuqori darajada oshiradi va zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'z:**

Raqamli texnologiya, internet, multimedia, onlayn platforma, video darslik, bilim, malaka, o'qituvchi, zamonaviy dars, ta'lim, virtual laboratoriya, raqamli muhit.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Globallashtiruv jarayonida axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga kirib kelgani singari, ta'lim sohasida ham o'quv jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarni yangi bilimlarni egallashga undash va o'qituvchining mehnatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim jarayonini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. {1}

### **Asosiy qism**

Raqamli texnologiyalar deganda ta'lim jarayonida kompyuter, internet, multimedia, interfaol doskalar, planshetlar, mobil ilovalar, elektron resurslar va onlayn platformalardan samarali foydalanish tushuniladi. Bunday texnologiyalar dars jarayonini interfaol, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi.

### **1. Raqamli texnologiyalarning afzalliklari**

Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirishda qulaylik yaratadi. Masalan, interfaol doska yordamida mavzuni vizual tarzda tushuntirish, videodarslar orqali murakkab jarayonlarni amaliy ko'rsatish, elektron testlar orqali bilimni tezkor baholash mumkin. Bularning barchasi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. {2}

### **Bundan tashqari, raqamli vositalar yordamida o'quvchi:**

- mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- o'z bilimni sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'ladi;
- axborot manbalaridan to'g'ri foydalanishni o'rganadi;
- ijodiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

### **2. O'qituvchi faoliyatida raqamli texnologiyalarning roli**

O'qituvchi uchun raqamli texnologiyalar darsni yanada samarali tashkil etish, o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasini tahlil qilish, ta'lim jarayonini kuzatish va baholash imkonini beradi. Onlayn ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Edmodo va boshqalar) yordamida o'qituvchi o'quvchilar bilan muntazam aloqada bo'lishi, topshiriqlarni yuborish va natijalarni nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar o'qituvchining o'z ustida ishlashi, yangi metodikalarni o'rganishi, zamonaviy dars ishlanmalari tayyorlashi va ta'lim sifatini oshirishiga ham yordam beradi. {3}

### **3. Ta'lim samaradorligini oshirishdagi raqamli texnologiyalar ta'siri**

**Raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:**

- Darsga qiziqish ortadi;
- Mustaqil izlanish faoliyati rivojlanadi;
- Bilimlarni uzoq muddatga eslab qolish imkoniyati kuchayadi;
- Jamoaviy ishlash madaniyati shakllanadi.

Masalan, virtual laboratoriyalar yordamida tabiiy fanlarni o'rganish yanada samarali kechadi. O'quvchi tajribani real sharoitda bajarish imkoni bo'lmasa ham, raqamli muhitda uni sinab ko'rishi mumkin. {4} Bu esa bilimni amaliy qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangi bilimlarni tez o'zlashtirishga, zamonaviy axborot muhitida erkin harakat qilishga o'rgatadi. O'qituvchi esa raqamli vositalar yordamida darsni yanada samarali, ijodiy va interfaol tarzda olib boradi.

Shu sababli, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat zarurat, balki ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishning muhim omili hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – 2021-yil 28-iyun.
2. Karimova N. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar*. – T.: "Ilm ziyo", 2021. – 180 b.
3. Jo'raev M. *Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash asoslari*. – T.: "O'qituvchi", 2019. – 240 b.
4. Rasulova D. *Raqamli ta'limning nazariy asoslari*. – T.: "Yangi asr avlodi", 2022. – 156 b.